

BO'LAJAK TEXNOLOGIYA TA'LIMI O'QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING TIZIMI

R. T. Umarov - o'qituvchi,

Sovurova Sh. - magistrsnt

A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh.

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimi ustida to'xtalib o'tilan.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetentlik, tizim, yaxlitlik, motivatsion, operatsion, emotsional, integrativ sifat.

Аннотация: В статье рассматривается система повышения профессиональной компетентности будущих учителей технологического образования.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, система, целостность, мотивационные, операциональные, эмоциональные, интегративные качества.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng miqyosli ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda yuksak kasb mahoratiga ega bo'lgan, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar ustuvor ahamiyatga egadir. Shu maqsadda keyingi yillarda respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh etish, xalq xo'jaligining turli sohalari da yuksak samaradorlik bilan faoliyat ko'rsataoladigan mutaxassislarni tayyorlash ga katta e'tibor qaratilmoqda. Bularning barchasini zamonaviy, tashabbuskor, yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan o'qituvchilarsiz amalga oshirilishi mumkin emas, albatta.

Mazkur maqolada bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimi bo'yicha muammolar ustida to'xtalib o'tiladi.

Tizimli yondashuvning asosiy qoidalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Yaxlitlik uning qismlari yig'indisidan ko'ra kattaroq tushunchadir.
2. Yaxlitlik qismlar tabiatini belgilaydi.
3. Qismlarni ularning yaxlitligidan ajratilgan holda o'rganib bo'lmaydi.
4. Qismlar doimiy o'zaro aloqada va o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

“Tizim” deb atalishi mumkin bo'lgan ob'ektlarga qo'yiladigan talablar sifatida mazkur qoidalarni hisobga olsak, o'qituvchining kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimida ushbu sifat o'qituvchi shaxsining integrativ sifati hisoblanib, u shaxsni yaxlitlik sifatida ifoda etadi. Demak, uning qismlari ham tizimli rivojlanish tavsifiga ega degan xulosaga kelsak bo'ladi.

Texnologiya fanining integrativ mazmunga ega ekanligi o'z navbatida texnologiya fani o'qituvchisi shaxsiy xislatlarining ko'p qirraliligi, kasbiy sifatlari ning

turli ko'rinishda namoyon bo'lishiga olib keladi, uning har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida rivojlanganligini talab qiladi va shaxsning muhim xususiyatlari va asosiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan qator tizimlar faoliyati zarurligiga sabab bo'ladi. Ushbu tizimlarning har biri alohida amalga oshirilmay, balki butun o'quv-tarbiyaviy ishlar majmuasiga uzviy ravishda kiritilgan holatdagina ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Demak, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisida kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimi kerakli tarbiyaviy vositalar va faoliyat turlari, mana shu faoliyatni tashkil etish shakllari hamda metodlaridan foydalanib, vazifaning o'ziga xos to'plamlari hal etuvchi funktsional bog'lanishlarga ega.

Bunday tizimning faoliyat ko'rsatish maqsadi mavjud sharoitlarda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchi shaxsining asosiy yo'naltiruvchi sifati bo'lgan kasbiy kompetentligini imkon qadar takomillashtirishdan iborat bo'ladi.

Umumiy didaktika va pedagogik, psixologiya masalalari bo'yicha fundamen tal ishlarni, yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlashda yuksak natijalarga erishgan respublikamiz oliy pedagogik ta'lim muassasalari tajribalari hamda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlar natijalarining qiyosiy tahlili natijasida, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillash tirishni ta'minlovchi tizim o'zaro uzviy aloqadorlikda bo'lgan quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oluvchi tizim hisoblanadi, degan xulosaga kelish mumkin:

1) kasbiy-pedagogik moslashuvchanlikning o'qituvchi shaxsining ob'ektiv mavjud bo'lgan, uni kasbiy jihatdan tarkib toptirishning hayotiy muhim o'zagi sifatida dolzarbligi;

2) oliy pedagogik ta'lim muassasasida o'qitish jarayonida bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarining amaliy yo'naltirilgan faoliyatini maqsadli ravishda faollashtirish;

3) talabalarning uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan, doimiy ravishda murakkablashtirib boriladigan mustaqil o'quv-pedagogik topshiriqlarni muntazam bajarishlarini tashkil etish.

Ko'zlangan tizimning aytib o'tilgan har bir tashkil etuvchisi amalda maqsadli yondashish asosida texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish yo'llarini, ularni amalga oshirish shakllarini aks ettiradi.

Ularning barchasi kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning mahsulsiz darajasidan ijodiy darajasigacha bo'lgan bosqichlarida muntazam amalga oshirishi lozim.

Tizimning har bir tarkibiy qismi o'zining lokal imkoniyatlariga ega va alohida olinganda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisida hozircha kasbiy kompetentlikni takomillashtirishni to'la ta'minlay olmaydi. Faqat ularning didaktik birligi kutilgan natijalarga erishish imkonini beradi.

Tizimda barcha tarkibiy qismlar o'qitish va kasbiy shakllanish vazifalari, umumpedagogik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarga kasbiy zarur bo'lgan bilim va malakalarni berish ketma-ketligi, mantig'i va mazmuni, o'qitish masalalari va ularni uyushtirish, tizimdagi barcha tarkibiy qismlardan foydalanish metodikasi bilan o'zaro bog'liqdir.

Boshqacha qilib aytganda texnologiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetent ligini takomillashtirish tizimi tarkibiy qismlarning funktsional, xronologik va mantiqiy aloqadorligi bilan bog'liq bo'ladi: oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi darsdan tashqari olib boriladigan mustaqil ishlarini faollashtirish zarurligini ko'zda tutish bilan amaliy-faoliyatli tayyorgarligini kuchaytirish bilan bog'liq va bularning barchasi o'qituvchi shaxsi asosiy xususiyati sifatida kasbiy mustaqilligini kuchaytirish mazmunida amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan tizim yaxlit tizim hisoblanadi, chunki uning tarkibiy qismlari o'zaro aloqalari natijasida yangi integrativ sifat –o'qituvchining kasbiy kompetent ligini yuzaga keltiradi. Bu fikrni faylasuf olim G.A.Ballning “yaxlit tizim tarkibiy qismlar majmuasidan iborat bo'lib, ularning o'zaro ta'sirlashuvi alohida tarkibiy qismlariga xos bo'lmagan yangi integrativ sifatlarni keltirib chiqaradi”, degan so'zlari tasdiqlaydi.

Ko'zda tutilayotgan tizimning yaxlitligi, amalga oshirilishi uning moslashuv chanligi bilan ham ta'minlanadi, ya'ni tarkibiy qismlarini ushbu holatda boshqalari dan bo'shroq shakllantirilgan kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismiga (motiva tsion, mazmunli – operatsion, emotsional- irodaviy) birinchi navbatda e'tiborni kuchaytirish bilan amalga oshirilishi mumkinligi bilan ta'minlanadi.

Taklif etilayotgan tizimning birinchi tarkibiy qismi, asosan texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini ta'minlaydigan motivatsion qismidir, u birinchi navbatda, yanada yuksak darajadagi kasbiy motivlarni, o'zlashtirish hamda shakllantirishga intilishini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu element talabalar o'quv-bilish faoliyatining tegishli maqsadlarini belgilash, maktabda pedagogik amaliyot umumpedagogik fanlarni “frontal” o'qitish davomi da mustaqil ta'lim topshiriqlarni bajarish yo'li bilan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining ushbu kasbiy sifatga ega bo'lishlariga ko'rsatma va intilishni shakllantiruvchi idrok etish harakatlarini tashkil etish bilan amalga oshiriladi.

Tizimning ikkinchi tarkibiy qismi, asosan o'qituvchi kasbiy moslashuv chanligining mazmunli – operatsion tashkiliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'nal tirilgan. Uning birinchi vazifasi – o'quv jarayoni tarkibini kasbiy-pedagogik faoliyati tuzilishi bilan yaqinlashtirish asosida tanlangan ixtisoslik sohasida talabalarni kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish hisoblanadi. Bu yerda o'qitish shakllari hamda metodlari tizimi yordamida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy faoliyat mazmuni tartiblashtiradi, shu bilan birga faqat predmetli emas, balki ijtimoiy mazmuni ham beriladi.

Tizimning uchinchi tarkibiy qismi, asosan o'qituvchining kasbiy kompetentligidagi emotsional-irodaviy qobiliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Turli pedagogik vaziyatlarda katta mas'uliyat hissi bilan mustaqil qaror qabul qilish va amalga oshirishga tayyorlik, birinchi navbatda, talabalarning muntazam tashkil etiladigan mustaqil o'quv-o'rganish faoliyatlarida rivojlantiriladi. Darsdan tashqari mustaqil ishlarni muntazam bajarishni tashkil etish talabalarda ular erishishi mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yish yo'li bilan irodaviy ko'rsatmalarni yaratishga zamin hozirlaydi. Bu hol o'z irodaviy kuchlarini boshqarish usullari to'g'risida yo'riqlar ko'rsatish va asta-sekin o'qituvchi nazoratidan talabaning o'zini nazorat qilishiga o'tish ishlarini o'z ichiga oladi. Bu o'quv jarayoniga bog'liq tarzda ijobiy emotsional muhitni yaratishga yordam beradi.

Ilgari surilayotgan tizim "muhi" pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi Texnologik ta'lim yo'nalishi mazmunini o'qitish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. U ijodiy fikrlovchi texnologik ta'lim o'qituvchisini tayyorlash bilan bog'liq o'qitish maqsadini amalga oshirish imkonini beradi. Tizimning har bir tarkibiy qismi o'quv rejasi va dasturi bilan belgilangan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari asosida amalga oshiriladi va kasbni izchillik bilan egallashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tizimli o'qish maqsadlariga mos o'qitish metodikasi, ya'ni izlanish va tadqiqotchilik metodlarini qo'llashga yo'naltirilgan va umumkasbiy turkumdagi fanlarni o'qitishda va talabalarning maktabda pedagogik amaliyotlari davomida sinovdan o'tkazilgan, taklif etilayotgan tizimni amalga oshirish fanlar asoslarini nazariy bilimlarning kasbiy bilimlar bilan va kasbiy moslashuvchanligi darajasini oshirish masalalariga mos malakalari bilan bog'liqligini ko'zda tutadi.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirish tizimining texnik tomoni o'qituvchining har bir talabaga amaliy ta'sir ko'rsatish va talabaning rivojlanayotgan sifatlarining darajasi bo'yicha ilgari borishini ta'minlovchi talablar va ma'lum izchillik bilan bajariladigan tadbirlar sifatida tasavvur qilish mumkin. Reproaktiv, rekonstruktiv va ijodiy mustaqillik sifatlarining rivojlanganlik darajasiga ko'ra ob'ektiv ravishda mos, o'zaro bog'liq va bir-biri bilan aloqador bo'lgan kasbiy moslashuvchanlik sifati ning shakllanganligi uch bosqichida amalga oshadi :

1. Dastlabki bosqichda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismlari takomillasha boshlaydi.
2. Asosiy bosqichda kasbiy kompetentlikning asoslari takomillashtiriladi.
3. Oliy bosqichda kasbiy kompetentlikning takomillashuvi yakunlanadi.

Har bir bosqich uchun talabalarda rivojlanayotgan sifatlarini kerakli darajaga olib chiqish uchun zarur bo'lgan o'qitishning muhim masalalari yechimini tartib bilan taqdim etish lozim. Bu bosqichlar inson faoliyatining har qanday sohasida o'zlashtirish va tajribasini rivojlantirishning genetik ketma-ketligini tashkil qiladi. Uni egallab

olganlik darajasini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan o'qituvchi kasbiy kompetentlikning takomillashtirish jarayonining har bir bosqichi vazifalarini quyidagicha belgilandi:

1-bosqich. Dastlabki – frontal va mustaqil ishlarni aniqlashtirish va ixtisoslashtirish davomida asosiy pedagogik harakatlarni bajarish namunalarni o'qituvchi namoyish etishi, masalaning barcha tarkibiy qismlari va u hal etilishi kerak bo'lgan barcha vaziyatlar ularga taqdim etilganda, talabalar odatiy, qarama-qarshilik mavjud bo'lmagan o'quv pedagogik vaziyatlarida mustaqil qaror qabul qilishda mashq qilishlari.

2-bosqich. Asosiy – o'qituvchi dars davomida ko'rsatgan namunalarni ancha uzoqroq, faqatgina printsiplial o'xshash mustaqil ta'lim materiallarga ko'chirish, talabalar yo'nalish ko'rsatilgan va maqsad berilgan, lekin shartlari to'la bo'lmagan (vaziyat) va odatiy bo'lmagan mustaqil ta'lim masala paydo bo'lib, uni hal etishda avval shartlarini to'ldirish keyin harakat qilish talab etilgan mustaqil qaror qabul qilishda mashq qilishlari.

3-bosqich. Oliy- pedagogik o'zaro aloqalarni tashkil etish metod, vosita va shakllarini ijodiy qo'llash imkonlarini ko'rib chiqish, talabalar faqatgina maqsad berilgan, shartlari hamda harakatlarini amalga oshirish talab etiladigan nostandart, odatiy bo'lmagan pedagogik vaziyatda qaror qabul qilishga mashqlar bajarishlari.

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchisida keltirilgan bosqichlar bo'yicha kasbiy moslashuvchanlik o'sib borishining belgisi talaba o'z kuchi bilan odatiy pedagogik harakatlarni bajarish imkoniyati yoki taqlidiy bajarishi (1-bosqich), yoki odatiy va ziddiyatli bo'lmagan pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish uchun asosiy pedagogik uslub va metodlarni tanlab qo'llashi (2-bosqich), yoki odatiy bo'lmagan va hatto o'zaro zid keluvchi pedagogik vaziyatlarda pedagogik faoliyat metodlarini ijodiy qo'llashi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar xizmat qiladi (3-bosqich).

Bo'lajak texnologiya ta'limi o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning taklif etilayotgan tizimi faoliyat nazariyasining yetakchi qoidalari, zamonaviy didaktik tamoyillari, mazmuni, o'qitish maqsadi, metod, shakllari, vositalari ning birligi, tizimli va shaxsiy faoliyatli yondashish asosiy talablari nuqtai nazari dan asoslangan.

Xulosa qilib aytganda quyidagi quyidagi shart-sharoitlar texnologiya fani o'qituvchisi kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning taklif etilayotgan tizimi muvaffaqiyatli ishlashiga yordam beradi:

1. Birinchi navbatda, o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini va unda o'qituvchining ushbu kasbiy sifati motivatsiyali, mazmunli-operatsion va emotsional-irodaviy jihatlarini e'tiborga olishni talab qilaligan individual yondoshish.

2. Idrok etish faoliyatidan kasbiy faoliyatga tabiiy o'tishni ta'minlovchi o'qitish jarayonining kasbiy yo'naltirilganligi.

3. O'qitish jarayonida talabalar mahsulsiz va mahsulli idrok etish faoliyatlarining mos ravishda birga olib borilishi.

4. O'zini kasbiy shakllantirish sub'ekti deb anglovchi talabalarining ta'lim jarayonida faolliklari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Тошкент, 2015. –120 бет
2. Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Монография. – Т.: “Фан ва технология” нашриёти, 2013.
3. Беспалько В.П.,Татур Ю.Г. “Системно-методическое обеспечение учебно-воспитательного процесса подготовки специалистов”. – М.: Высшая школа. 1988. – 144 с.
4. Беспалько В.П. “Педагогика и прогрессивные технологии.” – М.: Педагогика, 1989. – 168 с.
5. Sanaqulov X.,Jumaev M.E. “Kasbiy tayyorgarlikda fanlararo aloqadorlik // Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari” (ilmiy-nazariy Kengash ma'r. to'pl). – Т.: Nizomiy nomidagi TDPI, 1996. – 218-220 b.